

**MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MUSIQA TARIXI
MANBALARIDAN FOYDALANISHNING O'QUVCHILAR DUNYO-
QARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.**

Karimov Saxob Baxromovich

Musiqa ta'limi kafedresi o'qituvchisi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

E-mail address: karimovsaxob1@gmail.com.

Tel: +998990834259 +998888356007

O'quvchilarning umumiy shu jumladan musiqiy dunyoqarashlarini shakllantirish umumta'lim maktablari musiqi madaniyatiga ularda amaliy ijrochilik qobiliyatlarini o'stirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Bu maqsadga etish musiqi fani o'qituvchisidan o'z ustida tinmay ishlashni musiqiy va dunyoviy bilimlar bo'yicha keng dunyoqarashga ega bo'lishni hamda yuksak ijrochilik malakasiga ega bo'lishni talab qiladi. Bundan tashqari o'qituvchi o'zida bor bo'lgan bilim va malakalarni o'quvchilarga to'liq yetkazish uchun unda pedagogik mahorat yuqori darajada bo'lishi, darsda foydalanadigan metod, usul va texnologiyalarni to'g'ri tanlashi va bu metod va texnologiyalardan unumli foydalanish zarur.

Har bir ijtimoiy tuzum va har bir jamiyatda o'qituvchi-murabbiylar oldiga jamiyat mafkurasidan kelib chiqqan holda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifasi yuklatiladi. Sobiq tuzum davrida yosh avlodni kommunistik mafkura g'oyalariga sodiq holda tarbiyalash pedagog murabbiylar oldiga qo'yilgan muhim vazifa bo'lgan bo'lsa, hozirgi mustaqilligimiz sharoitida bu mafkura mamlakatimiz shanini himoya qilish, uning jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada yuqori ko'tarish ya'ni rivojlangan demokratik-huquqiy jamiyat maqsadidan kelib chiqqan holda qabul qilingan milliy istiqloq g'oyalariga sodiq, har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasi pedagogik murabbiylar oldiga qo'yildi.

Bu vazifani bajarish esa har bir fan o'qituvchisi va tarbiyachilarda, avvalo o'z fan sohalarini puxta bilishni, jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy- siyosiy voqea va hodisalardan, qabul qilinayotgan farmoyish va qarorlardan xabardor bo'lish, o'z ish faoliyatini shular asosida tashkil qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda shu asosda fanlarni o'qishga qo'yilgan davlat ta'lim standartlarida ham yosh avlodning fanlar bo'yicha bilim va malakali manaviy-ahloqiy yetuk barkamol shaxslar bo'lib yetishishlari, ularning jamiyat taraqqiyoti va ravnaqi uchun faol hamda fidoyi, oriyatli va g'ururli shaxslar bo'lib

yetishishlari ko'zda tutilgan. Shuning uchun ta'lim sohasida ishlarni jonlantirish, yaxshilash, ta'limning jahon andozalari asosida yangi ish usullarini, texnologiyalarini o'rganish va mamlakatimiz ta'lim sohasiga joriy qilish borasida bir muncha ishlar qilinmoqda.

Bunga ta'lim tizimiga kiruvchi barcha bo'g'indagi o'quv dargohlari bolalar bog'chasidan to oily ta'lim dargohlarigacha muntazam tekshiruvlar, bilimlar monitoringi, attestatsiya va akkreditatsiyalar o'tkazilishi misol bo'la oladi.

Olib borilayotgan bu sayi-harakatlar mamalakatimiz ta'lim sohasida ko'zga ko'rinarli darajada olg'a siljishlarga erishishga sabab bo'ladi. Jumladan, bu siljishlar musiqiy ta'lim sohasida ham ko'zga tashlanmoqda. Avvalo, Respublikamiz maktablarini ushbu soha bo'yicha pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalasiga ahamiyat qaratilmoqda. Mustaqilligimizdan oldingi davrda yurtimizda mavjud maktablarning 10-12% ga oily ma'lumotli, 40-50%ga o'rta mahsus ma'lumotli mutahassis kadrlar ishlagan, qolgan maktablarda boshqa fan o'qtuvchilari yosh avlodga musiqiy ta'lim bergan bo'lsa bu muammo deyarli hal qilinish arafasida.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Respublika bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyati va uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash 2009-2014 yillarga mo'ljallangan dasturini ishlab chiqish to'grisida"gi 2008 yil yanvar oyidagi farmoni ham mamalakatimizda musiqiy ta'lim sifat va samaradorligini oshirishni ko'zda tutib qabul qilindi. Mana shu farmon asosida mamalakatimizning ko'pgina hududlarida yangi, zamonaviy ko'rinishdagi musiqa va san'at maktablari qurilmoqda, mavjud maktablar esa zamon talablari asosida qayta ta'mirlanmoqda va barcha maktablarning moddiy texnika bazasi yaxshilanmoqda, cholg'u sozlari bilan ta'minlanmoqda.

Bu esa umumta'lim maktablari o'quvchilarining maktabdan tashqari musiqiy ta'lim olishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'quvchilarga musiqiy ta'lim berish sifat va samaradorligini oshirish faqatgina kadrlar bilim va malakalariga bog'liq bo'lmasdan, balki maktablarda musiqiy ta'lim berish uchun yaratilgan shart sharoitlar, o'quv-uslubiy jihozlar, texnika vositalari, metodik va o'quv adabiyotlari, cholg'u sozlari va ularning sifatiga bevosita bog'liqdir.

Agar musiqa asari jonli ijroda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan ijro etilishi lozim bo'lsa bunday ma'lumot o'qituvchining zimmasiga tushadi, ya'ni o'qituvchi yuksak malakali sozanda va honanda bo'lishi, musiqiy asar karakterini, ifodaviy xususiyatini, mazmunini chuqur anglash va milliy musiqiy bezaklarni kerakli joylarda qo'llashi, talaffuzi aniq va ravon bo'lishi taqozo etiladi. Buning uchun o'qituvchi ijro etayotgan cholg'u sozi sifati, tovush hosil qilish xususiyati hamda akustikasi yaxshi bo'lishi lozim.

O'rganilayotgan musiqiy asar, asarning tarixiy yozilishi sharoiti, shariy va musiqiy mualliflari to'grisida o'quvchilarga tushuncha berish bilan birga uning yuksak saviyadagi sifatli ijrosini ham ta'minlash joizdir. Shundagina bu musiqiy asarning mazmuni, yaratilish davri, mualliflari to'grisida bildirilgan fikrlar va ma'lumotlar o'zining o'quvchilar ongi va hissiyotlariga bo'lgan ta'sir kuchini yanada oshiradi.

Masalan: 1-sinf yillik mavzusi "Biz musiqani sevamiz" deb nomlanadi. Demak 1-sinfda o'tiladigan ilk darsimizni musiqa to'grisida bolalarning yoshiga nisbatan sodda va tushunarli tarzda qisqacha tushuncha berish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni musiqaning hayotbaxsh kuchi, uning ifoda vositalari, uning inson hayotidagi muhim o'rni to'grisida oddiy va sodda tilda tushuncha berish bilan birga musiqaning cholg'u sozlarda ijro etilishi, bu cholg'u sozlar yaratilganligiga juda ko'p davrlar bo'lganligi, uni o'sha davrlarda ham sozandalar mahorat bilan ijro etganligi to'grisidagi bildirilgan qisqacha ma'lumotlar ham musiqa darslarida musiqa tarixiga murojat etish hisoblanadi. Yoki, shu sinfda birinchi darsni O'zbekiston Davlat Madhiyasini tinglashdan boshlashimiz mumkin. Davlat madhiyamiz tinglab bo'lingach, uning mualliflari, madhiyamizning qabul qilingan sanasi (1991-yil 10-dekabr) madhiyamiz matnining mazmuni to'grisida sodda tilda o'quvchilarga tushuncha berish ham musiqa darslarida tarixiy manbalardan foydalanish hisoblanadi. Yohud shu sinfda o'tiladigan darslarning birida "Andijon polkasi" (xalq kuyi) musiqasini tinglashimiz va bolalarni raqsga chorlaymiz so'ngra kuy to'grisida suhbat chogida milliy raqs kiyimlarimiz, bu kiyimlarni halqimiz qadimdan kiyishi, har bir millatning o'z milliy kiyimlari bo'lishi, hozirgi davrda bu kiyimlar faqat raqs ijrosida kiyilsada qadimda uni barcha odamlar kiyganligi to'grisida berilgan tushuncha ham musiqa darslarida tarixiy ma'lumotlardan foydalanish hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv yili davomida o'qitiladigan barcha 34 soat dars davomida musiqa tarixi manbalaridan foydalanish yoki unga murojat etish mumkin.

Bundan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki umumta'lim maktablari har sinfida, har bir musiqa madaniyati darsida har bir to'garak mashg'ulotida va har bir o'tkazilayotgan ommaviy- musiqiy tadbirlarda dars, mashg'ulot yoki musiqa tarixiga oid manbalardan, ma'lumotlardan bildirilayotgan fikrlarga dalil sifatida va shu fikrlarni, to'ldirish, tushunarliroq qilish, ta'sir etish kuchini oshirish maqsadida foydalanish mumkin. Bu esa darsdan, mashg'ulotdan va tadbir o'tkazishdan ko'zlangan maqsadimizga tezroq etishimizga, ulardan o'quvchilar tassurot va bilimlar olishni engillashtirishimizga va shu orqali o'quvchilar umumiy va musiqiy dunyoqarashining shakllanishi hamda kengayishiga erishishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sagasida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari» Toshkent, «O'zbekiston»,1997 .137-bet
2. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., 1993.
- 3.S.Saidiy. O'zbek Musiqasi tarixi. Darslik.1-11 qismlar./ "Musiqa nashriyoti.". Toshkent-2020.yil.
- 4.Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik an'analari misolida). Toshkent-2008 yil (SITI-Arxiv).
5. Ibragimov O. "O'zbek musiqasi ijodi". 1990 y.
- 6.Abdullayev R.S., Solomonova T.Ye. O'zbek musiqasi tarixidan xrestomatiya. T., 1983.
- 7.A.Jabborov,S.Begmatova, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent 2018-yil
- 8.T E Solomonova.O'zbek musiqasi tarixi.Toshkent.O'qituvchi 1981-yil
- 9.Karimov Sakhob Bakhromovich. "PROBLEMS OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION AND TASKS TO BE SOLVED". Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022. <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2022/iss2/12>.
- 10.S.B.Karimov. "Specific methods of interdisciplinary organization of music lessons". Alma mater.- Samarkand. 2014, 2nd book.-pp.51-52.